

**Bolalarda ekologik madaniyatning shakllantirish yo'llari.**  
**Ways of shaping ecological culture in children.**  
**Пути формирования экологической культуры у детей.**

**Hasanboyeva Gulshanoy Boburjon qizi Andijon  
davlat pedagogika instituti tabiiy fanlar fakulteti  
biologiya yo'nalishi 202-guruh talabasi.  
Ilmiy rahbar: Turdiyeva Shoxida**

**Annotatsiya:** Bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning yo'llari. Ushbu maqolada bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish haqida malumotlar keltirilib o'tiladi. Bugungi kunda bu masala muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzu bolalarni tabiatni asrash, atrof-muhitni toza saqlash va ekologik mas'uliyatni his qilishga o'rgatish usullarini qamrab oladi. Dastlabki bosqichlarda ekologik ta'lim orqali bolalarga tabiatga g'amxo'rlik qilish odatlarini singdirish lozim. Bu maqsadga erishishda o'yin metodlari, tajribalar va tabiiy muhitda ekskursiyalar o'tkazish orqali ularni ekologik masalalar bilan yaqindan tanishtirish mumkin. Shuningdek, oila va maktabning hamkorligi bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Bu yo'nalishdagi tadbirlar bolalarning ekologik ongini oshirib, ularning kelajakda ekologik muammolarga mas'uliyat bilan yondashadigan yetuk shaxs bo'lib shakllanishiga zamin yaratadi.

**Annotation:** Ways to form environmental culture in children. This article mentions the formation of ecological culture in children. Today, this issue takes on significant importance. This theme covers ways to teach children to conserve nature, keep the environment clean and feel a sense of environmental responsibility. In the early stages, it is necessary to instill in children the habits of caring for nature through environmental education. To achieve this goal, it is possible to familiarize them with environmental issues by conducting game methods, experiments and excursions in the natural environment. Also, the cooperation of the family and the school plays an important role in the development of an ecological culture in children. Activities in this direction will increase the environmental awareness of children and lay the foundation for their future formation of a mature adult with a responsible approach to environmental problems.

**Аннотация:** Пути формирования экологической культуры у детей. В данной статье речь идет о формировании экологической культуры у детей. Сегодня этот вопрос приобретает существенное значение. Эта тема охватывает способы научить детей сохранять природу, поддерживать чистоту окружающей среды и чувствовать экологическую ответственность. На ранних этапах необходимо прививать детям привычки бережного отношения к природе через экологическое просвещение. Для достижения поставленной цели возможно ознакомление их с экологическими проблемами путем проведения игровых методов, экспериментов и экскурсий в природную среду. Также важную роль в развитии экологической культуры у детей играет сотрудничество семьи и школы. Деятельность в этом направлении позволит повысить экологическую сознательность детей и заложить основу для их будущего становления зрелого взрослого человека с ответственным подходом к экологическим проблемам.

**Kalit so'zlar:** Ekologiya, ekologik madaniyat, ekskursiya, ekskursiya va o'yin metodi, ekologik tarbiya, ekologik ong, ekologik talim, atrof-muhitni asrash, ekologik masuliyat.

**Keywords:** Ecology, ecological culture, excursion, excursion and game methods, ecological education, environmental awareness, environmental education, environmental protection, environmental responsibility.

**Ключевые слова:** экология, экологическая культура, экскурсионные, экскурсионно-игровые методы, экологическое просвещение, экологическое просвещение, экологическое просвещение, охрана окружающей среды, экологическая ответственность.

Hozirgi kunda ta'lim tizimiga berilayotga e'tibor natijasida Maktabgacha ta'lim tizimi ham bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Ta'lim sohasiga zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi bolalarning bilim olish jarayonini yanada oson va qiziqarli bo'lishini, o'zlashtirish darajasini oshishini ta'minlamoqda. Prezidentimizning “Maktabgacha ta'lim yo'nalishini tizimli rivojlantirish bo'yicha aniq davlat dasturlari qabul qilindi, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2 barobarga oshirilib 100 foyizga yetkaziladi” -deb aytgan so'zlari bunga qaratilayotgan e'tiborning kuchayayotganini yaqqol isbotidir. Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi: muammo va yechimlar Bugungi kunda insoniyatni xavf ostida qoldirayotgan hodisalardan biri ekologik jarayon hisoblanib, jamiyatda katta tashvish uyg'otmoqda. Insonning tabiiy boyliklardan



# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

haddan tashqari ortiqcha foydalanishi oqibatida, o'rmonlar kesilib, o'simlik va hayvonlar turlari kamayishi, foydali qazilma boyliklari tugab borayotganligi, shuningdek, suv havzalari va atmosfera havosining ifloslanishi natijasida sayyoramizning holati yomonlashib bormoqda. Bularning barchasi insonlarning tabiiy boyliklardan oqilona foydalana olmasligi oqibati hisoblanadi. Shuning uchun ham ekologik tarbiya berishni maktabgacha yosh davridan boshlash lozim. Ekologik bilim - bu tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, o'zgarishi, yer yuzidagi tirik jonzotlarning holati, ularning bir birlariga atrof-muhit o'rtasida bo'lib o'tadigan jarayonlar, tabiiy boyliklarning soni va sifati, hajmini, xillarini hamda ularni saqlash va tejamkorlik bilan foydalanish yo'llarini o'zlashtirishdan iboratdir. Bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berish ularni ilk marotaba tabiatga qadam qo'ygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli va oqilona ravishda foydalanishga, xalqimizning tabiatga hurmat va e'tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini shakllantirish tabiiy boyliklarni ko'paytirish va ulardan to'g'ri foydalanish, bog'lar, gulzorlar tashkil qilish, daraxtlarni, o'simlik va hayvonlarni asrashga, ularga ozor bermaslikka o'rgatish, bolalarning qalbida tabiatga, uni asrashga nisbatan yaxshi xislatlar va muhabbat uyg'otishdan iboratdir. Ekologik tarbiyaning oliy maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof muhit va uning muammolari haqida ongli munosabatni hamda shular bo'yicha optimal yechimlar topish to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'ladi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun bir qator vazifalarni hal qilishga to'g'ri keladi. 1. Maktabgacha yoshdagi bolalarimizga ekologik tarbiya berishda ularning yashab turgan joyi (tabiati, mintaqasi) va boyliklarini tejab-avaylashga, ularni ongli ravishda muhofaza qilishga o'rgatish lozim. 2. Ekologik madaniyatni shakllantirish. Bu, eng birinchi bo'lib oiladan boshlanmogi lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishning quyidagi yo'llari mavjud:

- Mashg'ulotlar o'tkazish;
- Ekskursiya;
- Mehnat;
- O'yinlar;
- Kundalik hayot ishlari.

Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi: muammo va yechimlar Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ta'lim berishning asosiy usullaridan biri ekskursiya hisoblanadi. Ekskursiya jarayonida bolalar tabiat to'g'risidagi aniq tasavvurga ega bo'lishlari kerak;

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

ko‘rish, sezish, eshitish kabi sezgi o‘rgablari bilan idrok etish orqali malumotlarga ega bo‘ladilar. Ekskursiya jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat, undagi qonuniyatlar to‘g‘risida realistic yani haqiqiy tasavvurlar hosil qilinadi. Bu jarayon orqali o‘rganilgan tushunchalar keyinchalik bolalar egallaydigan ilmiy bilimlarning asosini tashkil etib, maktabda o‘rganiladigan tabiiy fanlarni o‘zlashtirib olishni osonlashtiradi va kasbiy faoliyatga ijobiy tasir etadi. Tabiat haqidagi bilimlar bolalarga o‘z vaqtida o‘rgatilmasa, oqibatda ularning tabiatdan noto‘g‘ri foydalanishiga olib keladi. Bundan tashqari “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida tashkil qilinadigan 5 ta rivojlantiruvchi markazlarning biri hisoblangan “Ilm-fan va tabiat “markazi ham bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini oshirish uchun qaratilgan. Ilm-fan va tabiat markazida tajriba sinov maydonchasida o‘tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg‘otadi va ularni yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat markazi ham hisoblanadi. Markaz faoliyati to‘g‘ri tashkil etilsa bolalar tabiat haqidagi bilimlarning 90%ini o‘zlashtiradi. Fact: inson ko‘rish orqali 90% malumotni o‘zlashtirish xususiyatiga ega. Markaz nafaqat bolalarda balki pedagog fan o‘qituvchilarda ham qiziqish uyg‘otadi. Hayotimiz davomida ishlatiladigan narsalarni qayerdan kelganligini, ulardan nimalar olinganligi haqidagi ma‘lumotlar bolalarning o‘z qo‘llari bilan urug‘larni tuvaklarga sepish orqali unga suv qo‘yishi va urug‘ unib chiqishi va uni parvarishlashi bola uchun juda qiziqarli holatlar sanaldi. Amaliyot mashg‘ulotlari turli shakllarda olib boriladi va bularning ayrimlarida boshlang‘ich bilimlar shakllantiriladi. Buning uchun amaliyot rahbari kuzatish, rasmlarni ko‘rish, hikoyalar, ertaklarni o‘qishdan, multimedia vositalaridan foydalanadi. Boshqa mashg‘ulotlarda esa bolalarning o‘rgangan bilimlari sinaladi, kengaytiriladi va chuqurtlashtirilgan holda o‘rgatiladi. Mashg‘ulotlarda asosan didaktik o‘yinlar, umumlashtiruvchi so‘zlardan, bolalarning tabiatdagi amalga oshiradigan mehnatidan foydalaniladi. Barcha guruhlarda mashg‘ulotlarni yanada yaxshi natija berishi va qiziqarli muhitni tashkil qilish uchun sayohatdan foydalaniladi. Didaktik o‘yin ta‘limning asosiy shakli hisoblanib, ta‘limni yengil, tez va bolalar tomonidan oldindan mo‘ljallanmagan bilimlarni o‘zlashtirish shakliga aylanadi va osonlashtiriladi. Masalan, “Bu hayvonning nomi “Qizil kitob”ga kiritilganmi? Shu o‘simlikni top” o‘yini. Tarbiyachi bolalarni aylana shaklida turg‘izib, hayvon nomini aytadi va koptokni biror bolaga otadi. Bola koptokni ilib olib, “Qizil kitob”ga kirgan yoki kirmaganligini aytadi. Tabiat muhofazasiga doir o‘yin mazmunini ishlab chiqishda odamlarning o‘zaro munosabatlari, Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta‘lim



va amaliyot integratsiyasi: muammo va yechimlar ularning tabiiy muhitga insonparvarlik, g'amxo'rlik bilan munosabatlari markaziy o'rinda turmog'i lozim. Shuning Bunday o'yinlardan foydalanishda bolalarning yoshini hisobga olish, ularning yoshiga mos holda o'yinlar ishlab chiqish kerak. Tarbiyachining bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berishda xalqimizning o'ziga xos milliy tarbiyasidan, ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil qilishdan o'rinli foydalanishi yaxshi natija beradi. Milliy tarbiyamizda suvni isrof qilmaslik bilan birga, yer, havo, tuproq ham muqaddas hisoblanadi va ularni inson o'z manfaatlari yo'lida suistemol qilmasliklari darkor. Bolalarga ekologik ta'lim berishda har bir bolaga 1 ta gul tuvakni parvarishlash topshirig'ini berish ham eng samarali usullardandir. Bunda parvarishlash usullarini o'rgatib, ularni shu gulni qanday parvarish qilyotganini nazorat qilib boriladi. Natijada bolalarda avvalambor mehr-shafqat tuyg'usi, tabiatga muhabbat shakllanadi. Bolalar gullarining qurib qolmasligi uchun qayg'uradi va auni parvarish qilishadi. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiyani rivojlantirish orqali ularning tabiatga bo'lgan mehrini, shakllantirish va kelajakda tabiiy fanlarni o'zlashtirishi uchun poydevor yaratiladi. Bolalarga ekologik tarbiya berishda va zamonaviy usullardan foydalanish yaxshi natija beradi. Bundan tashqari tayyorlov guruh bolalariga ta'lim berishda zamonaviy texnologiyalardan biri VR lardan foydalanishni taklif qilgan bo'lardim. Bu texnologiya yurtimizda asta-sekinlik bilan rivojlanib bormoqda. Bu orqali bolalarning yaxshi o'zlashtirishini yanada oshirish va qiziqarli, yangicha ta'lim jarayonini tashkil etish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida” 2020 yil 22 dekabrda 802 sonli qaroriga 1-ilova Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standarti.
2. “Илк қадам” Мактабгача таълим муассасасининг Давлат ўқув дастури-Тошкент – 2018 й.
3. Sh.M. Mirziyoyev-“Yangi O'zbekiston Strategiyasi”-Toshkent-2021.
4. Kayumova.N.M.-“ Maktabgacha pedagogika.” T.: TDPU -2013 y. O'quv qo'llanma.
5. Sodiqova Sh.A.- “Maktabgacha pedagogika.” –